



**SOVET TUZUMIGA QARSHI KURASHDA QO’RBOSHILARNING HARBIY
STRATEGIYASI**

F.B.Hayitova *TDPU dotsent v.b.*

Sh.Nurkosimov *TDPU talabasi.*

Turkiston mustaqilligi uchun sovet rejimi va qizil armiyaga qarshi kurashda istiqlolchilik harakatining harbiy yo’lboshchilari – qo’rboshilar muhim rol o’ynashgan. Turkistonda 1917 yil oktyabr to’ntarishidan keyingi sodir bo’lgan voqealar jarayoni shuni ko’rsatadiki, markaziy sovet hukumati o’lka xalqlariga nafaqat mustaqillik, hatto milliy muhtoriyatni ham ravo ko’rishni istamadilar. To’g’ri, bu achchiq haqiqatni dastavval barcha Turkiston xalqlari tushunib yetmadi. Buni faqat milliy vatanparvarlar, jadidlar, ayrim rahbar xodimlargina tasavvur qilolgan edilar. Aslini olganda, muxtoriyat hukumati ag’darilib tashlanmaganida ham yoki bu hukumat hatto mutlaqo bo’lmaganida ham sovet tuzumiga qarshi qurolli harakatning vujudga kelishi tabiiy bir hol edi. Zotan, bu davrda Turkistonda vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy vaziyat ozodlik xarakatining boshlanishi muqarrar qilib qo’ygandi. Chunki bu davrda bolsheviklar tomonidan ilgari surilgan kommunistik mafkura Turkiston xalqlari uchun mutlaqo yot tushuncha edi. Turkiston Muxtoriyatining tugatilishi sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakatning butun Turkiston bo’ylab ommaviy ravishda boshlanishiga turtki bo’ldi, xolos. Dastlabki qurolli harakat qarshilik harakati guruhlarining tashkil topishi Kichik va Katta Ergashlarning nomlari bilan bog’liqdir. Q. Rajabovning ilmiy tadqiqotlarida sovet ayg’oqchilaridan birining ma’lumotini keltirishicha, “Ergash qo’rboshining musulmon va rus aholisi o’tasida paydo bo’lishi olqishlarga sabab bo’ldi, unga eng yuksak tilaklar tilandi hamda uning qiyoferasida Andijon va Qo’qonda o’rnashgan sovet qo’shinlaridan, hukumat vakillaridan va har qanday zo’ravonliklardan xalos qiluvchi insonni ko’rdilar”. Aholi o’tasida nufuzining oshib ketishining yana bir sababi Ergash qo’rboshi katta eshon bo’lgan unda odamlarni jalb qila olishdek noyob xususiyat bo’lgan. U qo’l ostida bo’lgan joylarda islom shariati nomidan ish yuritishga intilgan. Darhaqiqatdan, qo’rboshining bunday yo’l tutishini Buyuk Britaniyaning Turkistondagi josusi Beyilning yozishicha, Ergashning qo’shinida 20.000-24.000 yigit bo’lgan. Bu qo’shin har birida 200 tadan 1800 tacha yigit bo’lgan 70 ta qo’rboshilar dastasida harakat qilgan. Qo’rboshiga diniy unvon orqali qo’shining sonini ko’paytirish imkonini bergen va bundan u yaxshigina foydalangan.

Shunday bo’lishiga qaramay Katta Ergash yo’l qo’yan harby strategik xatolar uning sovetlar tomonida mahf etilishini tezlashtirdi. Iстиqlolchilarga umumiyoq rahbarlik keyinchalik Madaminbek qo’liga o’tgach, unga Ergash qo’rboshi bo’ysnmaydi, u ham o’z xolicha ish yuritadi. Ahvol shu darajaga etadiki, “1919 yil 14 aprelda Isfara yonida Madaminbek va Ergash qo’shinlari o’rtsida jang bo’ladi. Bu jangda mag’lubiyatga uchragan Ergash So’x qishlog’iga chekinadi”³⁶.

Qirq elliq kishilik unchalik qurollanmagan Madaminbek otryadi yaxshi qurollangan va Qizil Armiya qo’mondonligidan madad olib turgan arman dashnoqlari bilan yuzma-yuz

³⁶Rajabov Q. Haydarov M. Turkiston tarixi. -T.: “Unversitet”, 2002.-B. 117-118.



turib jang qila olmas edi. Bunaqa paytda birdan birdan bir chora dushman ustiga to'satdan hujum qilish, o'z kuch bilan yirik dushmani gangitib mag'lub etish edi. Buning uchun faqat qo'rmas botir millatparvar yigitlar zarur edi, ular bilan otryadni mustahkamlash kerak edi. Madaminbek juda to'g'ri taktikani topa bildi va dushmanni kutulmagan zarbala gacha uchratib dog'da qoldira boshladi. Unga yana bir narsa – xufyakorlik (razvedka) juda qo'l keldi. Xufyalar avval kuchlar to'plangan joylar ularning miqdori va qurollari haqida to'liq ma'lumot keltirar va shunga qarab, Madaminbek otryadi mutlaqo kutulmagan tomondan va kutulmagan paytda to'satdan hujum qilar edi. Shu tariqa o'zi talofot ko'rmasdan dushmanni holdan toydirardi. Qizil Armiya otryadlari esa, mahalliy aholidan yo'lboshchilar yollaydigan bo'lishdi. "Ammo bu "yo'lboshchilar" ham, - Qizilo Armiya vazvod komandiri M. X Davlatyusupov (tatar), - ko'pincha bizni qopqonga tushirib qo'yishar edi. Shunday hollar ham ro'y berar ediki, bosmachilarning xufyalari "yo'l boshlovchi" sifatida otryadimizda choyxonachi va oshpaz bo'lib olishib, sodda jangchilarni zaharlab qo'yishar edi.

Shu kurash jarayonida Madaminbek o'zini mohir sarkardagina emas, balki uzoqni ko'ra biladigan siyosatchi ekanligini namoyon etdi. U musulmon armiyasini tuzushni rejalashtirar ekan, bunda rus ofiserlaridan foydalanish nihoyatda zarur deb hisobladi. U sovetlarga qarshi kurashda boshqa qo'rzboshilardan farqli o'laroq yuqorida takidlaganimizdek dini va millatidan qati nazar dushmanga muxolif bo'lgan askarlarni jalb eta boshladi. Ochig'ini aytganda, Madaminbek Sovetlarga qarshi kurashda harbiy qurol yarog' olish uchun chet mamlakatlar bilan hattoki o'lkadagi mahalliy boylardan yordam olishga harakat qildi. Misol tariqasida, esa Marg'ilonlik Ibrohim hoji orqali Madaminbek Angilyadan yangi tipdagi 500 ta vintovka sotib oldi. Marg'ilon va Namangan boylari yashirincha qurol aslaha sotib olib, Madamin qo'rzboshining qo'shinini qurollantirar edi³⁷. Madaminbek siyosida sarkardalik, davlat va siyosat arbobi xos sifatlar o'zaro qo'shilib ketgan edi. U Farg'ona vodiysidagi istiqlolchilarning haqiqiy ma'nodagi dohiysi, tan olingan yulboshchisi edi. Madaminbek vodiyyadagi sovet hokimiyyati organlariga muqobil ravishda o'z siyosiy boshqaruvsiz usulini joriy qildi. "U bizning rahbarlik faoliyatimizda yo'l qo'ygan xato va kamchiliklarimizdan ustalik bilan foydalanardi. Uning o'z "boshqaruvsiz apparati", o'zining tribunali o'zining "genshtabi" bo'lgan; u qonunlar chiqargan", - deb e'tirof qiladi Madaminbekka qarshi kurashgan dushmanlaridan biri Gramatovich. Bu fikrni Madaminbekni jang maydonlarida yaxshi bilgan qizil qo'mondon M. Polikovskiy ham o'z xotiralarida tasdiqdaydi³⁸.

Yana bir taniqli qo'rboishi Shermuhammadbek esa asosiy taktik reja qilib qizil armiya bilan hech qanday kelishuvchanlik siyosatini rad etgan holda ularga qarshi ayovsiz kurashish vazifasini qo'ygan va bu borada xalqqa ham o'z murojotnomalari bilan bila chiqqan. Q. Rajabovning risolasida keltirilishicha Shermuhammadbek Turkiston mintaqasining barcha aholisiga qilgan murojaatida qurolli kurash mohiyatini ifodalagan edi: "Bolsheviklar aldaydilar va o'ldiradilar. Barcha davlatlar bolsheviklarni tugatish uchun ularga qarshi kurashmoqdalar. Turkiston xalqiga o'zini o'zi boshqarish huquqi berilganida edi, biz kurashmagan bo'lar edik. Turkistonga o'z huquqi berilmas ekan, biz huquq va vijdonimiz or-nomusimiz uchun so'ngi tomchi qonimiz

³⁷ Karim I. Madaminbek. -T.: "Sharq", 2000. -B. 47.

³⁸ Rajabov Q. Farg'ona vodiysidagi istiqlolchilik harakati: mohiyati va asosiy rivojlanish bosqichlari(1918-1924 yillar) -T.: "Yangi nashr", 2015. -B. 56.



qolguncha bolsheviklar bilan kurash olib boraveramiz”³⁹. Buxoro amirligini qizilo armiya tomonidan vayron qilinganidan so’ng Buxoro hududlarida ham istiqlolchilik haraktlari avj oldi. Kurash boshlarida esa turli xil dastalarga boshchilik qilayotgan qo’rboshilar aniq reja asosida kurash olib bormay hoxлага usullarida qizillarga qarshi tartibsiz janglar olib borar edi. Lekin shunday bo’lishiga qaramay ko’pchilik qo’rboshilar tinchlik tarofdori bo’lishgan va keyinchalik sovet hukumatining hunrezliklaridan so’ng esa ularning kurashda tashviqotlarini boshlashga majbur bo’lgan. Shulardan biri esa, Anvar Posho istiqlolchilar kurashiga rahbarlik qilar ekan-u diplomatiya vositalaridan to’liq foydalanan, bolshevoy rahbarlar bilan muzokara olib borish, qizil askarlarni Turkistondan olib chiqib ketishga butun vujudi bilan harakat qildi. Bu Fayzulla Xo’jayevning tanlangan asarida aynan quyidagicha keltiradi: Ibrohimbek va boshqa qo’rboshilar nomidan Anvar Posho qizil askar rahbarlari nomiga jo’natilgan maktubida shunday deyilgan; “Haqiqiy mustaqil Buxoro tuprog’idagi aholi vakillari bo’lgan bizlar sizlarga ma’lum qilamizki, sizlar mamlakatimizdan chiqib ketmaguningizcha jangni davom ettiraveramiz” – deb bir qarorga keldik. Hozirgi vaqtda behuda qon to’kilmasin deb va odamgarchilik qilib sizlarga mamlakatimizdan chiqib ketishni taklif qilayotirmiz. Shunday qilsangiz, sizning do’stлaringiz bo’lib qolamiz va o’zimiz yordam berib sizlarni ochlikdan saqlab qolamiz, aks holda sizlar Vataningizda ocharchilikdan o’layotgan oilalaringiz kabi mahv etilasiz. Hozir biz gunohkor bo’lmaylik deb odam qoni to’kishni istamayotirmiz. Lekin, xalqimizning istagiga xilof ravishda Vatanimizga bostirib kirgan sizlar bilan jang qilishni muqaddas burchimiz deb bilamiz. Bizlar xursandlik bilan bu yo’lda qonimizni to’kib, shahid bo’lishdan qaytmaymiz”. Bundan ko’rinib turibdiki bunday talab va uning siyosat, harbiy sohasidagi g’alabalari bolsheviklar hukumatini sarosimaga solib qo’ydi. Sho’ro hukumati 19 aprelda sulk tuzishni taklif etadi⁴⁰. Hisor vodysida urushlar shiddat bilan davom etar ekan, Ibrohimbek Anvar Posponi tark etadi. Buxoronyng sobyq amyry Ibrohimbekdan 7000 jangchi bilan Anvar Poshoga yordam berish uchun Boysunga borishni so’ragandi. Ibrohimbek o’z jangchilari bilan Hisor vodysiga keladi, lekin Anvar Posho bilan bog’lanmay, o’zi rus qo’shnlariga qarshi urush boshlaydi. Anvar Posho favqulodda yordamga muhtoj edi. Ibrohimbek va Anvar Posponing ajralishi ozodlik kurashining davom etishiga salbiy ta’sir ko’rsatadi. Shunday qilib, qizil armiya reja bilan ishlamagan turk qo’shnlariga qarshi hujum qilish imkoniyatini qo’lga kiritgan holda 1922-yil 2 iyulda Hisorni, 13 – 14 iyulda Dushanbeni egallahsga muvaffaq bo’ladi⁴¹. Bundan ko’rinib turibdiki Turkiston o’lkasida Farg’ona vodiysida, bo’lsin Buxoro hududida, Xorazim o’kasida bolsheviklarga qarshi kurash muntazam ravishda surunkali avj olib turgan. Sovet hukumati esa bundan qattiq tashvishlangan holatda ularga qarshi choralarmi qidirgan. Sovet hukumatining birdan bir bosh rejası o’laroq qo’rboshi dastalarini birlashtirmslik ularni bir biriga nisbatan dushman kayfiyatida bo’lishi uchun qo’ldan kelganicha jonboslik ko’rsatgan. Bu jihatdan ular amaliy va tshviqot ishlaridan ustomonlik bilan foydalandilar. Qo’rboshilarning esa ko’zga ko’ringan namayondalridan tashqari ko’pgina kichik dastalari hech qanday reja asosida jang taktikasini olib borishmagan, eng dahsgatlisi esa eng yirik istiqlolchi guruhlarga qo’shilish

³⁹ Rajabov Q. Shermuhammadbek. -T.: “Abu matbuot-konsalt” 2011. -B. 10.

⁴⁰ Xo’jaev M. Shermuhammadbek qo’rboshi. – T.: “Sharq”, 2008. -B. 121.

⁴¹ Hayit B. “Bosmachilar”: Turkiston milliy kurashi tarixi. (1917-1934) -T.: “Akademnashr”, 2023. -B. 196.



o'rniga mustaqil ravishda faoliyat yurutishni afzal bilgan. Yuqorida ko'rib o'tilgan qo'rbosehilar misolida ham harby strategiyasining bosh maqsadi o'laroq ittifoq masalalariga loqaydlik bilan yondashgan. Ular ham qizilarga qarshi mustaqil ravishda hujumlar uyushtirgan. Shunday bo'lishiga qaramay istiqlolchilarda qurol yarog' bobida ham askarlarning tayorgarligida ham sovet qo'shinidan ortda qolishi va bir qancha sabablar Madaminbek, Shermuhammadbek va Anvar Posho kabi istedodli qo'rbosehlarning doimiy g'alabasini taminlay olmagan. Shuning natijasida ham ularning jang taktikasi va ko'plab rejalar o'z samarasini bermagan. Buning eng katta sabablardan biri yagona qo'mondonlikka bo'yisinadigan harbiy taktik reja, yagona hujum, himoya usullarning ishlab chiqilmaganligi, askarlarning pala-partish usulda jang olib borish rejimi ularning mag'lubiyatining bosh omillari bo'lib xizmat qildi. Bu esa Sovetlarning: "Bo'lib tashla hukumronlik qil" asnosida harbiy dastalarni bir biriga qarshi qo'yib yakkalagan holatda tor-mor etishi oson kechdi.

Lekin shunday bo'lishga qaramasdan ko'plab istiqlolchi kuchlarning harakati oddiy xalq va ko'plab toifa vakillarining qo'llab-quvatlovi ostida bo'ldi. Ularni ham mustaqillik uchun kurashga ilhomlantirdi. Hozirda ham qo'rbosehlarning faoliyatini o'rganib ularning istiqlol uchun kurashlarini yana ham chuquroq tadqiq etishimiz va sovetlarga bilan kurashlarda qanchadan qancha qurbanlar bu yo'lda mahv etilganini va bizga qorong'u bo'lgan haqiqatlar bisyor ekanligini his etmog'imiz darkor.